



# PANDEMIYADAN KEYINGI DAVRDA TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Respublika ilmiy-amaliy anjumani

## MATERIALLARI



5-6 oktabr

Buxoro – 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI  
TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI KAFEDRASI**

**PANDEMIYADAN KEYINGI DAVRDA TURIZMNI  
BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI  
YO‘NALISHLARI**

**Respublika ilmiy-amaliy anjumani  
materiallari  
2021 yil 5-6 oktabr**

**ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ  
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В  
ПОСТПАНДЕМИЧЕСКИЙ ПЕРИОД**

**сборник тезисов  
Республиканская научно-практическая конференция  
5-6 октября 2021 года**

**“Durdona” nashriyoti  
Buxoro – 2021**

**Dasturiy qo'mita:** i.f.d., prof. O.X. Xamidov, i.f.d., dots. O.S. Qahhorov, i.f.n., dots. D.Sh.Yavmutov, i.f.d., prof. B.N.Navro'z-Zoda, i.f.n. H.R.Hamroyev, i.f.f.d., Z.S. Nurov, i.f.n., dots. N.S.Ibragimov, i.f.f.d. A.J. Abdulloyev, i.f.n., S.U. Tadjiyeva, i.f.n. S.S. Ro'ziyev  
D.B. O'roqova.


**Tahrir hay'ati:** i.f.d., dots. O.S. Qahhorov, i.f.n., dots. D. Sh. Yavmutov, O'.U. Rashidov, G.T.Zaripov, i.f.f.d. Z.S. Nurov, i.f.n., dots N.S.Ibragimov, E.A.Farmanov, I.O.Davronov, O.O.Radjabov, K.Sh.Yuldashev, D.B.O'roqova.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagi 78-F-sonli farmoyishiga asosan Buxoro davlat universitetida 2021 yil 5-6 oktabr kuni "Pandemiyadan keyingi davrda turizmni barqaror rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani tashkil etilgan, tezislari to'plami tayyorlangan va nashr etilgan.

### **To'plam i.f.n. Ibragimov N.S. umumiy tahriri ostida chop etildi.**

To'plam Buxoro davlat universiteti ilmiy-texnik kengashi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va ma'ruza tezislari mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar, sanalarning to'g'riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o'zlari mas'uldir.



Program will take 30 days each year that are available for the hotel departments like:

- Food & Beverage;
- Front Office;
- Sales & Marketing;
- Management;
- Evaluation & Introduction part for all departments will be the same.

Firstly, the knowledge and skills of the staff will be evaluated by special testing process and there will be introduction to the session itself.

Occupation process is the core of the training, as it includes the teaching classes.

Step1. Understanding of Client's Requirements and market condition of the department;

Step2. Learning new and modern approaches to work;

Step3. The usage of up-to-date technologies;

Step4. Combination of all learned skills and its implementation to the workplace;

Examination & Evaluation part is the completion part of the session. All students will be examined by oral, testing and case-study methods and will be evaluated. In the end, all students will be certified with the overall mark that they got from training.

Professional development program should be held once in a year and with the help of governmental institutions it ought to be controlled and organized carefully.

#### **List of references:**

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-sonli "Turizm to'g'risida"gi qonuni  
 Armstrong, R., Connie, M., Go, F., The Importance of cross-culture expectations in the Measurement of Service Quality Perceptions in the Hotel Industry, Int. J. Hospitality Management 2017, vol. 16, No 2, pp.181-190.

Wajdi Milhem. Khalil Abushamsieh. Maria Nieves Pérez Aróstegui. Training Strategies, Theories and Types. Journal of Accounting – Business & Management vol. 21 no. 1 (2014) 12-26.

Koval Svitlana. Employee Training and Development. Institute of Hospitality Management in Prague. 2015-p.22-25.

Michael Armstrong 1992. Human Resource Management Strategy & Action. London. Kogan Page.

Mukhles M Al-Ababneh. Service Quality in the Hospitality Industry. Journal of Tourism and Hospitality 2016,6:1.

Mukhles M. Al-Ababneh. Employees' perspectives of service quality in hotels. Research in Hospitality Management 2016, 6(2): 189–193.

### **MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI VA MAZKUR SOHADAGI RAHBARLARNING MENEJERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**Navruz-zoda L.B. BuxDU katta o'qituvchi  
 Negmurodova Sh. BuxDU talaba**

Madaniyat va san'at sohasining jamiyatdagi o'rni xususida fikr yuritganda, avvalo, "Madaniyat va san'at sohasi jamiyatga nima bera oladi?" degan savolga javob izlashimiz darkor.

Shu borada davlatimiz rahbarining Toshkent viloyati Chinoz tumaniga tashrifi chog'ida:

***"Har bir uyda, har bir ko'chada madaniyat bo'lishi kerak. Xalqimiz aytganidek, olma pish, og'zimga tush, degan bilan natija bo'lmaydi. Birgalikda harakat qilishimiz zarur. O'zgarishlarni istasak, hammamiz ongli ravishda o'zgarishimiz kerak"***<sup>50</sup>, - deya bildirgan fikrlari shundan dalolat beradiki, xalqi madaniyatli bo'lgan mamlakatning kelajagi yanada porloq bo'ladi.

<sup>50</sup> <https://review.uz/uz/post/prezident-chinozda-3-ming-nafar-xotin-qizni-ish-bilan-taminlash-boyicha-korsatma-berdi>

Shu nuqtai-nazardan qaraganda madaniyat va san'at sohasining jamiyatda tutgan o'rni juda ahamiyatli hisoblanadi.

Har qanday mamlakatda, uning moddiy imkoniyatlari qanchalik keng bo'lmasin har bir shaxsda, aholida, jamiyatda ma'naviy-madaniy tushuncha hamda ko'nikmalar bo'lmasa u ijtimoiy jihatdan "qoloq" davlat bo'lib qolaveradi.

Mamlakat jamiyatidagi har qanday soha bo'lmasin, madaniy-ma'rifiy bilimga ega bo'lgan kadrlar – "faol ijtimoiy shaxslar"dir. Jamiyat esa undagi "faol ijtimoiy shaxs"lar harakatisiz rivojlana olmaydi.

Birgina, madaniy meros obyektlariga bo'lgan turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda madaniy meros obyektlariga e'tiborni kuchaytirish evaziga madaniyat va san'at sohasi mamlakatni faqatgina ijtimoiy tomondan emas, balki iqtisodiy-siyosiy jihatdan ham yuksaltirishga o'zining hissasini sezilarli darajada qo'shadi.

Ma'lumki, har bir inson o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida ma'lum tarzda yo aqliy, yoki bo'lmasin jismoniy mehnat qiladi. Vaholanki, biologik nuqtai-nazardan qaraganda, hech bir inson umri davomida uzluksiz ravishda mehnat qila olmaydi, ya'ni organizm o'z o'rnida hordiq chiqarishga ham ehtiyoj sezadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, madaniyat va san'at insonga madaniy hordiq beribgina qolmay uni komil shaxs bo'lib yetishishiga, ruhan tetik va ongan rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasida "Madaniyat va san'at" sohasini yanada rivojlantirish maqsadida, Prezidentning PQ-5054-sonli "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga asosan:

"Madaniyat vazirligining moddiy madaniy meros sohasidagi YUNESKO bilan ishlash hamda muzeylar va kutubxonalarni rivojlantirish bilan bog'liq vazifa va funksiyalari tegishligicha Turizm va sport vazirligi hamda Madaniy meros agentligiga o'tkazildi.

Qarorning e'tiborli tomonlari shundaki, 2021/2022 o'quv yilidan:

— Toshkent arxitektura-qurilish instituti va Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida madaniy meros obyektlarini asrash fakultetlari;

— Buxoro arxitektura va qurilish kollejida Madaniy meros obyektlarini asrash yo'nalishi ochilishi.

Shuningdek, Turizm va sport vazirligi ta'sischi ligida "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish direksiyasi" davlat unitar korxonasi tashkil etilishi;

2021-yil davomida moddiy madaniy meros obyektlari, muzey, sport majmualari va boshqa namoyish obyektlarida elektron to'lov, turniket (lazer-datchikli) va video qayd qilish moslamalarini o'rnatishni, kirish biletlarini oldindan sotib olishni nazarda tutuvchi yagona markazlashgan elektron tizim joriy etilishi va mazkur tizim 2021-yil 1-sentyabrga qadar namuna sifatida Samarqand shahrida yo'lga qo'yilishi;

Bundan tashqari, hududlarda uzoq yillar davomida shakllangan me'morchilik maktablarini saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida davlat muassasasi shaklida "Madaniy meros obyektlari restavratsiyasi direksiyasi" va bosqichma-bosqich ravishda uning mintaqaviy restavratsiya markazlari tashkil etilishi kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Bu kabi yangidan yangi qaror hamda farmonlarning qabul qilinishi va ularga asosan ish olib borilishi, shubhasiz, madaniyat va san'at sohasining taraqqiy etib borish, rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, aholining ko'pchilik qismi ham o'z ma'naviy ongini yuksaltirish maqsadida yashab turgan hududida joylashgan madaniyat uylariga borishga "erinadi". Mana shu "erinchoqlik"ni aholi, yoinki, butunboshli jamiyat ongidan siqib chiqarish, albatta, bo'lajak madaniyat xodimlarining fidokorona mehnati evaziga amalga oshadi.

Hozirda jamiki hududlarda joylashgan Madaniyat markazlarida mehnat qilayotgan mutaxassis-kadrlar anchagina, lekin ularning "Zamon bilan hamnafas" yo'sinda ish olib bormayotganligi, o'z-o'zini yangilay olmayotganligi yoki bo'lmasin, yangi innovatsion loyihalarning yo'lga qo'yilmaganligi, loyihalar mavjud bo'lsa-da, lekin ularga kiritiladigan investitsiya hamda homiyning yo'qligi ko'zga tashlanadi. Bularning barchasi mazkur sohada to'siq-kamchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Vaholanki, Prezidentning 2020-yil 26-maydagi PF-6000 son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish to'g'risida"gi<sup>51</sup> Farmoni shu sohaning mavjud kamchilik va muammo-to'siqlarini bartaraf etishga qaratilgan muhim hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasining jamiyatda tutgan o'rnini mustahkamlash, jamiyat ongiga "madaniylashgan hayot" tushunchasini singdirish, uni targ'ib qilish, kelajagi bor, faol ijtimoiy hamda jamiyatga foydasi tegadigan komil shaxslarni tarbiyalashda "madaniyat va sanat" sohasining o'z o'rnini borligini anglatish masalalari, avvalo shu sohaning rivojlanishini taqozo etadi. Madaniyat va san'at

<sup>51</sup> <https://lex.uz/docs/-4828880>

sohasining rivojlanishi, o'z o'rnida, ko'pgina unga muvofiq xizmatlarni keltirib chiqaradi. Bunday xizmatlarni o'z tarkibiga oladigan korxonalarni boshqara oladigan menejerlar kerak bo'ladi.

Xususan, Buxoro Davlat Universiteti tarkibidagi San'atshunoslik fakultetiga qarashli Musiqa ta'limi kafedrasidagi "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" yo'nalishi xuddi shunday xodimlarni tayyorlab beradi.

Mazkur yo'nalish Buxoro Davlat Universitetida 2019-2020 o'quv yilidan o'z faoliyatini boshladi va 2019-2020 o'quv yilida qabul kvotasi bo'yicha 20 nafar talaba o'qishga qabul qilingan bo'lsa, 2020-2021 yil o'quv yilida esa bu ko'rsatkich 50 taga yetkazilgan va qo'shimcha to'lov-shartnoma asosida qabul qilinganlar bilan birgalikda hozirda 72 nafar talaba-yoshlar tahsil olmoqda.

Fikrimiz davomida madaniyat va san'at sohasi menejeri xususida gap borar ekan, avvallo," menejer" terminiga ta'rif berib o'tsak.

Ayrim manbalarda, "Menejer - bu maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning sir-asrorlari, qonun-qoidalarini chuqur biluvchi malakali mutaxassis"- deb ta'rif beriladi. Menejerlar bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tashkilotlarda ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqaruvchi shaxs hisoblanadi va o'z o'rnida menejer bir necha talablarga ham javob bera oladigan shaxs bo'lishi lozim.

Finnmark saunasining tarkib menejeri Robin Tompson bu haqida – "Menejer tez-tez yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi va o'z xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lishi kerak"<sup>52</sup>- deya ta'rif beradi.

Menejer lavozimida faoliyat yuritib borayotgan shaxs nafaqat o'z harakatlari uchun, balki boshqarayotgan tashkilot kelajagi uchun ham javob berishini hisobga olgan holda "menejer" shaxsi alohida xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Ular quyidagilar:

- Moslashuvchanlik, ya'ni raqamli dunyo o'zgarishi sharoitida menejerning yangiliklarga va har qanday vaziyatga doimiy moslashib borishi;

- Muammoni hal qilish – har qanday muammoni oldindan ko'ra bilish va kerakli yechimlarni topish;

- Vaqtni boshqarish – bajarilishi kerak bo'lgan vazifa uchun qancha vaqt kerakligini hisobga olish, vaqtni samarali taqsimlash;

- Tashkilotchilik qobiliyatiga xodimlarni tanlay olish va ularni unumli mehnat qilishini ta'minlash;

- Rejalashtirish – strategik mutafakkir sifatida barcha vazifalarni reja asosida amalga oshirish;

- Yetakchilik- turli psixologiyaga ega bo'lgan odamlar bilan ishlash va ularni birlashtirish;

- Innovator – axborot asri davrida yangilanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda yangi innovatsion g'oyalarni kirita olish.

Madaniy-ma'rifiy soha menejerining faoliyati inson faoliyatining barcha sohalari singari o'z xususiyatiga ega. Menejerning asosiy vazifalaridan biri, o'z faoliyatini kundalik hayot va mustaqillik davri vazifalari bilan uzviy bog'lashdir. Qachonki, u hayot muammolaridan, kishilarning ehtiyojlaridan ajralib qolsa, quruq safsatabozga aylanadi. Madaniyat sohasi menejeriga muntazam ravishda izlanishlar olib borish va ishga hamma vaqt ijobiy yondashish talabi qo'yiladi. Uning yana bir asosiy faoliyat turi bu - tarbiyaviy faoliyatdir. Bu faoliyat boshqa tarbiyaviy faoliyatlardan yoshi, kasbi, bilim darajasi, qiziqish va ehtiyojlari turlicha bo'lgan kishilar orasida olib borilishi bilan farqlanadi.

Bizning fikrimizcha, menejerning kasbiy professional faoliyati o'z mohiyati bilan har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish, kishilarning madaniy dam olish, o'z ehtiyojlarini qondirish, iste'dod va qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan ijtimoiy-foydali faoliyat hisoblanadi.

Yuqoridagi talab hamda xususiyatlarga to'laqonli ega bo'lgan madaniyat sohasi menejeridan o'z o'rnida bo'sh vaqtda o'z bilimlarini boyitishi, qobiliyatlarini o'stirishi, hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun madaniy-ma'rifiy muassasaga keluvchilarga mehribonlik, g'amxo'rlik ko'rsatishi ham talab etiladi.

Bundan tashqari, mazkur soha menejeri o'ziga yuklatilgan vazifani to'laqonli bajarishi davomida rivolanib borayotgan jamiyat yangiliklaridan xabardor bo'lgan holda, o'z faoliyatida ulardan unumli foydalana olishi ham ahamiyatga molik masalalaran biri hisoblanadi.

Shunday qilib, mamlakatimizda xalqimiz ongini yuksaltirish, madaniyatni yanada ravnaq toptirish borasida yaratilayotgan imkoniyatlar beqiyos. Binobarin, jamiyatimizda asosiy rol o'ynaydigan ishlar bilan har qancha g'ururlansak arziydi. Madaniyatimizning yanada ravnaq topishi uchun fidokorona xizmat qilish har bir avlodning burchidir.

Zero, madaniyati yuksak xalqning jahon hamjamiyatida o'rni o'zgacha!

<sup>52</sup> <https://uz.entwicklungsethnologie.org/great-management-skills-13833>

<b>Хуррамов О. К.</b>	Перспективные направления цифрового туризма в постпандемический период	150
<b>Файзиева С. К.</b> <b>Баратова М. Б.</b>	Особенности питания при коронавирусной инфекции	153
<b>Rajabova M.</b> <b>Niyozova I.</b>	Malayziyada turizmning rivojlanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari	156
<b>Мухидов Ҳ.</b>	Система образования в условиях пандемии	159
<b>Khalimova N. J.</b> <b>Aminova N.B.</b>	Hotel staff professional development and sample plan of training program	161
<b>Navruz-zoda L.B.</b> <b>Negmurodova Sh.</b>	Madaniyat va san'at sohasining jamiyatda tutgan o'rni va mazkur sohadagi rahbarlarning menejerlik qobiliyatlarini rivojlantirish	163

“Садриддин Салим Бухорий” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.  
Ҳажми 168 бет. Формат А4. Адади 20 нусха. Буюртма 316. 2021.

Бухоро шаҳри. М.Иқбол кўчаси, 11.